

## TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI DAVRIDA QAMOQXONA TIZIMI

Mamutov Marat Mambetmuratovich

NDPI akademik litseyi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18756475>

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyoning katta qismi bosib olinib, 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Bu siyosiy-ma'muriy tuzilma mintaqani imperiya tarkibiga to'liq kiritish, uning boshqaruv, sud, moliya va huquq tizimlarini rus qonunlariga moslashtirish maqsadida tuzilgan edi. Shu jarayonda qamoqxonalar tizimi ham Rossiya imperiyasining jinoyat-sud amaliyotlariga asoslangan holda shakllantirildi.

1867-yildan boshlab Turkistonda qamoqxona tizimi Rossiya umumimperiya qonunchiligi hamda mahalliy sharoitlarni hisobga olgan maxsus "Nizom"lar asosida faoliyat yuritgan. Turkistondagi qamoqxonalar dastlab harbiy-ma'muriy rahbarlikka, xususan, uezd boshliqlari va harbiy gubernatorlarga bo'ysungan. 1879-yilda Rossiyada Bosh qamoqxona boshqarmasi tashkil etilgach, Turkistondagi muassasalar ham markaziy nazoratga olingan, ammo hududiy masofaning uzoqligi sababli mahalliy gubernatorlar katta vakolatlarga ega bo'lib qolgan [1]. Dastlab Ichki ishlar vazirligiga, keyinchalik Adliya vazirligiga bo'ysundirilgan bu boshqarma butun imperiya bo'ylab yagona standartlarni o'rnatishga intildi.

Turkistonning har bir viloyat markazida harbiy-sud mahkamalariga bo'ysunuvchi viloyat qamoqxonasi tashkil qilindi. Bu qamoqxonalarning asosiy vazifalari jinoyat sodir etgan shaxslarni vaqtincha saqlash, tergov ishlari olib borilayotgan mahbuslarni ushlab turish, sud hukmi chiqqan mahkumlarni Rossiya imperiyasining boshqa hududlaridagi jazo koloniyalariga yuborishdan avval joylashtirish kabilar bo'lgan. Shulardan Toshkentda joylashgan Turkiston o'lkasi markaziy qamoqxonasi eng yirik mahbus saqlanadigan joy bo'lib, u "Toshkent qal'a qamoqxonasi" yoki "Arsenal qamoqxonasi" deb ham atalgan.

Qamoqxonalarda saqlangan shaxslarning tarkibi turfa xil bo'lgan. Rossiya imperiyasining jinoyat qonunlarini buzgan mahalliy aholi, mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqqan fuqaro va diniy rahbarlar, soliqqa oid qonunbuzarliklar, o'g'irlik va talonchilik jinoyatida ayblangan shaxslar, siyosiy mahbuslar shular jumlasidan.

Qamoqxonalarda ham mahalliy aholi, ham rus muhojirlari saqlangan. Mahalliy musulmonlar uchun qamoqxona hayoti o'ta og'ir kechgan, chunki muassasalarda shariat normalari deyarli inobaxtga olinmagan, bu esa ko'pincha diniy va ijtimoiy nizolarga sabab bo'lgan. 1880-yillarga kelib, qamoqxonalarning o'ta to'lib ketishi va moddiy ta'minotning yetishmasligi tizimning asosiy muammolaridan biri bo'lgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qamoqxona sharoitlari nihoyatda og'ir bo'lgan. Mahbuslar sonining ortib ketishi, oziq-ovqat taqchilligi, tibbiy xizmatning yo'qligi, gigiyena talablariga rioya qilinmasligi natijasida ko'plab kasalliklar — xususan, sil va tif keng tarqalgan. Ko'plab guvohliklarda bir kamerada 20–30 nafargacha mahbus saqlangani qayd etilgan. Ba'zi manbalarda ayollar va bolalar uchun alohida joy bo'lmagani, ular erkaklar bilan bir joyda saqlangani ham tilga olinadi.

XX asr boshiga kelib Rossiyada ko'plab siyosiy o'zgarishlar qatori qamoqxona tizimida ham islohotlar o'tkazilgan. 1909-yilda mahbuslarga mehnat orqali jazo o'tash imkoniyatlarini yaratish, tibbiy xizmatni yaxshilash to'g'risida farmonlar chiqarilgan. Biroq, bu Turkiston o'lkasida bu farmonlarning to'liq bajarilishi juda sust kechgan. 1908-1909-yillarda Turkiston

o'lkasini taftish qilish uchun kelgan senator K.K.Palen ham bu haqida o'z hisobotlarida alohida qayd etib o'tgan [2].

Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, Chor Rossiyaga qarshi tez-tez ro'y berib turgan qo'zg'olonlar oqibatida Turkiston o'lkasidagi qamoqxonalar mahbuslar bilan to'ldirilgan. Masalan, 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni bostirilganidan so'ng, Andijon bo'ylab jami 777 kishi hibsga olinib, tergov qilingan [3]. 1916-yilgi Jizzax qo'zg'olonida esa jami 3000 ga yaqin kishi qamoqxonaga tashlangan. Bu qo'zg'olonchilarning askariyati harbiy sudlardan keyin Turkiston bo'ylab turli qamoqxonalarga tashlangan bo'lsa, ayrimlari Sibirga surgunlikka yuborilgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Turkiston general-gubernatorligi davridagi qamoqxona tizimi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatining ajralmas qismi bo'lgan. Bu tizim mahalliy aholiga nisbatan nazoratni kuchaytirish, siyosiy va ijtimoiy qarshiliklarni bostirish vositasi sifatida xizmat qilgan.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Шебалков, С. В. Организационное устройство мест заключения и система тюремного управления в Российской империи в конце XIX — начале XX вв. / С. В. Шебалков. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2013. — № 10 (57). — 456-460.
2. O'zbekistonning yangi tarixi, Toshkent, 2000-yil, "Sharq" nashriyoti, 329-bet
3. Fozilbek Otabek o'g'li, "Dukchi eshon voqeasi", Toshkent, 1992-yil, 34-bet
4. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent: "Sharq", 1998.